



O'ZBEK TILIDA O'RIN-JOY MA'NOSINI IFODALOVCHI SO'ZLAR
TASNIFI

Omonjonov Hadyatillo G'ayratjon o'g'li

*Farg'ona davlat universiteti,
Chet tillari fakulteti,
fransuz tili yo'nalishi talabasi*

Annotatsiya: Bu maqola o'rin-joy tushunchasini ifodalovchi so'zlar va ularning tasnifini o'rganishga bag'ishlangan. O'zbek tilidagi lug'aviy birliklar ichida joylashuvni, makonni yoki ma'lum bir obyektning holatini ifodalovchi so'zlar keng tahlil qilingan. Shuningdek, ushbu so'zlarning turli kontekstlardagi semantik va grammatik xususiyatlari batafsil ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: o'rin-joy, semantika, tasnif, joylashuv, o'zbek tili.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению слов, выражающих понятие «местоположение» и их классификации. В статье проведён подробный анализ слов русского языка, обозначающих расположение, пространство или состояние определённого объекта. Особое внимание уделяется семантическим и грамматическим особенностям данных слов в различных контекстах.

Ключевые слова: местоположение, семантика, классификация, расположение, русский язык.

Annotation: This article is dedicated to the study of words expressing the concept of "location" and their classification. It provides an in-depth analysis of English lexical units that denote place, space, or the condition of a specific object. Particular focus is given to the semantic and grammatical features of these words in various contexts.

Keywords: location, semantics, classification, position, language.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin o'zbek tili ta'lim tizimida ko'plab o'zgarishlarni ko'rishimiz mumkin. Bunday o'zgarishlarni quyidagilar asoslab beradi:

Lotin alifbosiga asoslangan yangi o'zbek yozuvining joriy etilishi yoki shu alifbo asosida ishlab chiqilgan yangi imlo qoidalari. O'z navbatida, Prezidentimizning quyidagi fikrlari ham tilshunoslik tarixi haqidagi ayni haqiqatdir: Mubolag'asiz aytish mumkin-ki, fanimiz aql-zakovat, salohiyatimizning noyob va go'zal binosiga bundan ko'p asrlar muqaddam, poydevor solingan edi. Mamlakatimiz fani juda



qadim zamonlardan yuksala boshlaganini, uning chuqur va qudratli ildizlari borligini ayta olamiz. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.⁵

Istiqlol – xalqimizning ulkan yutug'i bo'lib, u o'z taqdiriga egalik qilish huquqi, ma'naviy qadriyatlar va milliy an'analarga tayanib yashash va yurtimiz boyliklaridan xalqimiz va Vatanimiz manfaatlari yo'lida foydalanish imkoniyati ekanligi bugungi kunda barchamiz angelayotgan haqiqatdir.

Mustaqillik yillarida aholi ong va tafakkurini o'zgartirishning zarurligini hisobga olish doimo ustuvor bo'lib keldi. Yurtboshimizning: —Ong va tafakkur o'zgarmasa, hayot o'zgarmaydi'', - degan g'oyasi amalda o'z isbotini topmoqda. Zero, mustaqillikni chuqur anglash, uni qadrlash, uning uchun qayg'urish, avvalo, ongni, tafakkurni yangilash va sog'lomlashtirishdan boshlanadi. Yangicha hayotni eskicha ong va tafakkur, qarashlar bilan qurib bo'lmasligini anglab yetish odamlar dunyoqarashining o'zgarishiga olib keladi.

Ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunning eng muhim va dolzarb masalasidir. Bu masalada Yurtboshimizning quyidagi sabog'i ibratlidir: —Biz sog'lom avlodni tarbiyalashimiz, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda, faqat jismoniy sog'lomlikni emas, balki, sharqona axloq-odob va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz. Sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalarni ongiga singdirib olgan kishi yuksak ma'naviyatli, ya'ni ma'naviy barkamol, komil inson hisoblanadi. Ma'naviy barkamollik insonning dunyoqarashi, e'tiqodi, ruhiyati, xulq-atvor normalari, axloq-odobi bilan bevosita aloqadorligi orqali ajralib turadi. Ma'naviy barkamol kishilar xalq taqdiri va farovonligi, Vatan taqdiri va uning ravnaqini o'ylaydilar.

Ma'naviy barkamol inson shon-shuhrat, mansab, moddiy boylik ketidan quvmaydi, moddiy qiyinchiliklar duch kelganda qaddi bukilmaydi.

Xalqimizning boshidan kechirgan fojiali o'tmishi, uning tilimiz, dinimiz, ma'naviyatimizga solgan xavfi bizdan tarixni anglash va ogohlikni talab etadi.

Prezidentimizning Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz⁶, - degan fikrlari ham bejizga aytilmagan. Darhaqiqat, ertangi kun egasi o'z tilining tarixini bilishi maqsadga muvofiqdir.

Fan sohasidagi tadqiqotlarning yanada rivoj topishiga esa biz o'zimiz harakat qilishimiz zarur. Shu jumladan, boshqa fanlar qatori ta'lim tizimida ona tili fanining tutgan o'rnini ham o'ziga xos bo'lib, u o'z predmeti va boshqa fanlar haqidagi ma'lumotlarni uzatish hamda qabul qilishda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

⁵ . Shavkat Mirziyoyev - Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2022-yil, 43-bet.

⁶Shavkat Mirziyoyev - Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2022-yil, 28-bet.





Ma'lumki, o'quvchilar til birliklariga tayanib, o'z fikr-mulohazalarini, tushunchalarini ifodalashga harakat qiladilar. Shunga ko'ra, ona tili darslarida o'quvchilarning nutq faolligini oshirishda muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, ularni mantiqiy xulosalar chiqarishga undash, izchil fikr bayon qilish malakalarini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Til sohasida qilinadigan har bir yangilik shu tilning ravnaqi uchun xizmat qiladi. Bugungi yosh avlodni tarbiyalashda ilg'or pedagogik texnologiyalarni dars jarayoniga tatbiq etish bugungi kunning asosiy maqsadlaridan biridir. Shuning uchun ishimiz so'ngida mavzuga mos namunaviy dars ishlanmasi ko'rsatiladi.

Yurtboshimizning maktab ta'limiga e'tiborini ko'pgina asarlaridagi fikrlarida uchratish mumkin: — Shu haqiqatdan kelib chiqqan holda, yoshlarimizni har tomonlama sog'lom va barkamol etib tarbiyalash, hayot abadiyligi, avlodlar davomiyligini ta'minlaydigan ma'naviyat qo'rg'oni bo'lmish oilani mustahkamlash bugungi kunda barchamizning nainki asosiy vazifamiz, balki insoniy burchimizga aylanishini istardim.⁷ O'z navbatida, oilada ta'lim va tarbiyani maktab bilan hamkorlikda olib borish bugunning asosiy vazifasidir.

Shuning uchun ham ta'lim tizimidagi o'zgarishlar jadal rivojlanmoqda va yoshlarimiz ilm-fan sohasida jahon ahlini lol qoldirib kelmoqdalar.

O'quvchilarning komil inson sifatida takomil topishida o'qituvchining o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, o'quvchilarning nutqiy malakalarini shakllantirishda, dunyoni anglatishda o'qituvchi nutqining ham o'ziga xos o'rni mavjud.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi hamda Ta'lim to'g'risidagi qonun talablari asosida ta'lim tizimini tubdan yaxshilashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Milliy dasturning qabul qilinishda har bir o'qituvchiga alohida mas'uliyat yuklanadi. Shu jumladan, har bir o'qituvchi o'z nutqi ustida ham mukammal ishlashi zaruriyati tug'ildi. Barkamol hamda har taraflama yetuk insonni tarbiya qilish uchun o'qituvchi nafaqat puxta bilimli, balki o'z fikrini chiroyli, ravon, puxta nutq madaniyati qonuniyatlarini chuqur egallagan holda ifoda qila bilishi zarur.

Bu borada yurtboshimiz Sh. Mirziyoyev — shunday deydi:

“Biz barpo etayotgan yangi jamiyat yuksak ma'naviy va axloqiy qadriyatlarimizga tayanadi va ularni rivojlantirishga katta e'tibor beradi”. Ana shu ma'naviy va axloqiy qadriyatlar inson tafakkuri, nutqiy madaniyati bilan chambarchas bog'liqdir. Zero jamiyat madaniyati nutqiy madaniyatsiz bo'lmaydi.

⁷ Shavkat Mirziyoyev, “O'zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi”, Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2023-yil, 55-bet.





Ma'lumki, insonlar yashab kelayotgan joylariga nom berish qadim-qadimdan an'ana bo'lib qolgan. O'z navbatida joyga berilgan nom ham nimagadir asoslanadi. Bugungi kunda esa o'sib kelayotgan yosh avlod o'zi yashab kelgan joy nomini, tarixini bilishi va qo'yilgan nomlar bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev „Biz xalqimizning tarixiy va ma'naviy boyliklarini saqlash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqdamiz”⁸, - degan so'zlari bilan jamiyat taraqqiyotida ma'naviyat va ma'rifatning nechog'lik katta ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatib berganlar. Mamlakatimizda demokratik jamiyatni vujudga keltirishda har bir fuqaroning yuksak ma'naviyati, chuqur ilmiy bilimlar sohibi bo'lishining o'rni belgilab berilgan. Demak tarixni bilish, o'z avlodlarini bilish demakdir. Tilshunoslikning turli davrlarida nomshunoslik bilan shug'ullanish, olimlarimiz tomonidan respublikamizdagi nomlarning o'rganilishi davom etib kelmoqda. Maktabda o'quvchilar nafaqat aniq va gumanitar fanlarning asoslarini balki odamiylik, insoniylikning qonun-qoidalarini ham o'rganadilar. Bolalarga uni singdirishda o'qituvchining o'rni nihoyatda kattadir. Shu sababga ko'ra, uzluksiz ta'lim tizimida o'qituvchi shaxsiga katta e'tibor berilgan.

Geografik nomlarni, atamalarni o'rganish mustaqillikka erishganimizdan so'ng yanada katta ahamiyat kasb etmoqda. O'z xalqining, o'z mamlakatining hozirgi davrdagi taraqqiyotini va madaniyatini chuqurroq o'rganmoqchi bo'lgan har bir kishi, shubhasiz uning tarixini mukammal bilishi kerak. Joy nomlari xususida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o'zining qarashlarini quyidagicha bayon etadi:

—Holbuki, ajdodlarimiz o'zlari yashaydigan mahalla, shahar va qishloqlar, bog', xiyobonlarga nom tanlashga juda katta e'tibor bergan.

Misol uchun, Toshkentning o'n ikki darvozasiga berilgan chuqur ma'noli, go'zal nomlarni olaylik. Beshyog'och, Kukcha, Chig'atoy, Sag'bon, Labzak, Taxtapul, Qorasaroy, Kamolon, Qo'ymas, Qo'qon, Qashqar darvoza degan nomlar avvalombor o'zining aniq tarixiy-jug'rofiy ma'nosi bilan ajralib turadi.

Tarix – kishilik jamiyatini aniq taraqqiyot yo'lini har tomonlama va ziddiyatli bo'lgan yagona qonuniyatli bir protsess tarzida o'rganuvchi ijtimoiy fanlar ichida asosiy o'rinni egallaydi. Yangi O'zbekiston tamal toshini yaratuvchi yosh avlodni tarbiyalash muhim vazifadir.⁹ Shunday ekan, har bir inson o'z Vatani tarixini yaxshi bilish va o'zga mamlakatlar tarixi va madaniyatiga hurmat bilan qarashi lozim.

⁸ Shavkat Mirziyoyev, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”, Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2022-yil, 92-bet.

⁹ Shavkat Mirziyoyev, “Yangi O'zbekiston – yangi qarorlar davri”, Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2021-yil, 64-bet.





Darhaqiqat, tarix odamlarni o'ylantiradi, bo'lib o'tgan tarixiy voqea va hodisalarni tahlil qilish, fikrlash va ulardan amaliy hayotiy xulosalar chiqarishga o'rgatadi.

Yoshlarga Vatan tarixi va madaniyatini, jug'rofiyasi va iqtisodini, qadimiy urf-odatlarimizni har tomonlama o'rgatish ahamiyatga egadir. Suningdek, o'zi yashayotgan joy nomlaridan xabardor bo'lish ham bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Xalqimiz ma'naviy merosi buyuk mazmun va hududiy cheksizlikka ega, o'zi yaratgan bebaho ma'naviy xazinasini bilan sharq olamida ma'lum va mashhurdir.

Ma'lum hududda juda qadim zamonlardan buyon yashab kelgan o'troq o'zbek qabilalari, ularning yashagan joylari, bugungi kundagi joy nomlari haqida batafsil ma'lumotlar keltirildi. Har bir qabila yoki xalq yangi shakllangan o'zbek tiliga o'zining ulishini qo'shgan. Buni biz shu hududda yashovchi o'zbeklarning turli xil shevalarida, dialektlarida gapirishida, hatto urf-odatlarida ham ko'rishimiz mumkin. Bu holat joy nomlarining atalishiga ham sezilarli ta'sir etgan. Bir xil qabila yoki urug' nomining toponim sifatida bir necha territoriyada uchrashi mazkur qabilaning shu joylarda yashashi yoki yashab ketganligi natijasida sodir bo'lgan. Shuning uchun ham joy nomlarini o'rganishni tarix, arxeologiya, etnografiya kabi fanlar bilan chambarchas bog'liq holda olib borish va ularning yutuqlariga asoslangan.

O'rin-joy otlarini o'rganishda biz asosiy e'tiborni ularning bizgacha yetib kelgan nom bilan atalganlik sababini to'g'ri izohlashga qaratishimiz kerak. Chunki joy nomlari ma'lum hududda yashovchi xalq tiliga xos bo'lgan fonetik, leksik, morfologik elementlarni o'zida aks ettiradi. Shuningdek boshqa tillardan kirgan nomlar ham shu til vakillari talaffuziga moslashtiriladi yoki aksincha ushbu xalq tilidagi nomlar boshqa xalqlar tilida buzib talaffuz qilinadi. Natijada nomlar o'zining dastlabki fonetik shaklini yo'qotadi va hozirgi kunda tushunilishi qiyinlashadi yoki butunlay tushunilmaydi. O'rin-joy nomlarini tadqiq qilishda ularning mana shu tomonlariga ham alohida e'tibor berish kerak.

O'rin-joy nomlarini yig'ish va tadqiq qilish ma'lum hududda xalq hayotining qadimgi izlari, rivojlanish usullari va taraqqiyotning turli bosqichlarida yuz bergan voqea va hodisalar, shuningdek mazkur xalqning tiliga xos lingvistik xodisalar va qonuniyatlarni yoritish imkonini beradi.

Bizning hududimizda ham Uchtut, Sarmish, Keskanterak kabi o'rin-joy nomlari ham ma'lum sabablar asosida qo'yilganligi ham hech kimga sir emas. Istiqlool sharofati bilan mamlakatimiz qishloqlari ham ko'rkamlashib bormoqda. Hamma qulayliklarga ega bo'lgan zamonaviy qishloqlar barpo qilinmoqda. Xulosa qilib aytganimizda, joylarga nom berishda nafaqat tilshunoslar, balki tarixchilar, etnograflar, geograflar, arxeologlarning, qolaversa, qishloq ziyolilari, keng





jamoatchilikning ham fikri muhimdir. O‘rin-joylarning mazmun-mohiyatni bilish esa o‘quvchilarning asosiy vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Shavkat Mirziyoyev, “Yangi O‘zbekiston – yangi qarorlar davri”, Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 2021-yil, 64-bet.
2. Shavkat Mirziyoyev, “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari”, Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 2022-yil, 92-bet.
3. Shavkat Mirziyoyev, “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot strategiyasi”, Toshkent, O‘zbekiston nashriyoti, 2023-yil, 55-bet.
4. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2002-yil, 75-bet
5. Mahmudov N. va boshqalar Ona tili 6-sinf uchun darslik 2009-yil, 146-bet
6. Qorayev S. Geografik nomlar ma’nosini bilasizmi? (toponimik lug‘at) O‘zbekiston nashriyoti, Toshkent-1970-yil. 114-bet
7. G‘ulomov A. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari, Toshkent, —O‘qituvchi, 2008-yil. 12-bet
8. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent, 2002-yil, 56-bet
9. To‘xliyev B, Shamsiyeva M, Ziyodova T. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2006-yil, 95-bet.